

KREDIT RISKI

Muhammadkarim Ismoilov

*Namangan muhandislik-qurilish instituti
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti stajyor o'qituvchi*

Siddiqjanov Samandar

*Namangan muhandislik-qurilish instituti
1-IQT-22 guruh talabasi*

Mirzakamolova Halima

*Namangan muhandislik-qurilish instituti
1-IQT-22 guruh talabasi*

Annotatsiya: Davlat, nodavlat Bank va Moliya institutlar faoliyati risklarsiz amalga oshmasligi va agar imkon qadar kutilayotgan risk darajasini pasaytirish va risklarni boshqarish to'g'ri tashkillashtirilsa korxonada kelgusida risk tufayli duchor bo'ladigan muammoli aktivlarga deyarli uchramaydi.

Kalit so'zlar: Risk, kredit risklari, kreditor, bank operatsiyalari, foiz riski, qaramlilik koeffitsiyenti, maksimal potensial zarar, kredit riskining hajmi, foizlar qoplamasi

Kredit riski deganda qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi ya'ni belgilangan kredit summasining va u bo'yicha foizlarning shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi. Kredit risklarini aniqlash har bir tijorat banklarining rivojlanishi uchun yordam beradigan jarayonlarning asosiy qismi hisoblanadi.

Bank amaliyotlarida foyda berilayotgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardan iborat ekanini hisobga oladigan bo'lsak kredit risklari banklar uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Banklarda kredit riski mavjud bo'lgan holda kreditor qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlari va majburiyatlarini o'z muddatida bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik vujudga keladi. Bankning kutilayotgan mablag'lari salmog'ini tushib ketishi va bank foydasining kamayib ketishiga qarz oluvchilarning kredit bo'yicha foiz to'lovlarining yoki kredit asosiy summalarining o'z vaqtida to'lanmasligi yoki umuman to'lanmasligi sababchi bo'ladi. Shu sababli kreditorlar mablag'larning qaytishi bilan bog'liq risklarni kamaytirishga harakat qilishadi. Asosan risk darajasini kreditor kredit berguniga qadar va kredit bergandan so'ng undan foydalanish mobaynida aniqlanishi mumkin. Riskni kamaytirish uchun kreditor kredit berishdan oldin riskni aniqlashga harakat qiladi.

Kredit risklarining tarkibiga quyidagi risklar kiradi:

*Kreditni o'z muddatida to'lamaslik ya'ni qarz oluvchining shartnoma shartlarini bajarmasligi bilan bog'liq risk;

*Kredit asosiy summasi va foizlarini o'z vaqtida qaytara olmaslik natijasida bank likvid mablag'larining pasayishiga olib keladigan risk

*Kreditni ta'minlash ya'ni kredit uchun qo'yilgan garovni sotishdan olingan mablag' berilgan kreditning summasini qoplay olmasligi bilan bog'liq risk, bunda bank o'z talabini to'la qondira olmaydi.

*Kredit oluvchining ishbilarmonligi bilan bog'liq risk, bunda risk korxonada faoliyati bilan bog'liq bo'ladi.

Bankning eng asosiy bo'limi kredit bo'limi hisoblanib bu bo'limda kredit berishda har doim mijoz bilan kreditni qaytarmaslik riski mavjud bo'ladi. Kredit qaytarilmasligi bank faoliyatiga, xodimlarning ish haqiga bevosita ta'sir o'tkazadi va ba'zi hollarda banklarni bankrotlik holatiga ham olib kelishi mumkin. Ba'zi rivojlangan mamlakatlarda kreditlarni qaytarish sud orqali amalga oshiriladi, lekin ko'p hollarda banklar bunday yo'l tutmaydi. Shu sababli kredit bo'limining asosiy vazifasi kredit qaytarmaslik riskini kamaytirish hisoblanadi.

Kredit riskining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar:

-kredit olgan shaxs faoliyatidagi iqtisodiy hamda siyosiy o'zgarishlar, turli sabablar tufayli kreditni to'lashga mos mablag'larning mavjud bo'lmasligi;

-iqtisodiy qonunchilikdagi o'zgarishlar;

-kreditni qoplash uchun olingan garovning qiymati hamda sifati bo'yicha ishonchning yo'qligi;

-kredit olgan shaxsning mahalliy yoki davlat miqyosidagi rolining tushib ketishi va uning ishchanlik faoliyatida vujudga keladigan o'zgarishlar.

Turli kompaniyalar ham bank bilan bo'ladigan operatsiyalarda turli xil kredit risklariga duch kelishi mumkin. Agar biror bir kompaniyaning bank omonatlariga joylashtirgan bo'sh zaxiralari mavjud bo'lsa, bankning yopilishi riski yuzaga kelganda kompaniya omonatlarining katta qismini yo'qotadi. Shu bilan birga kompaniya bitta bankda juda ko'p omonatlarini saqlagan bo'lsa bunda foiz riski mavjud bo'ladi, sababi bank doimiy omonatchi mijoz ekanligini bilgani uchun kompaniyaning boshqa bir bankdan yangi omonati uchun olishi mumkin bo'lgan yuqori foiz stavkalarini taklif etmasligi mumkin. Qarz oluvchi kishi tomonidan qarzlarni to'lanmasa yoki to'lanishi kechiktirilgandagi yo'qotilishi mumkin bo'lgan summa kredit riskining hajmi hisoblanadi. Qarz oluvchi tomonidan qaytarilmagan qarzning umumiy miqdori maksimal potentsional zarar deb ataladi. Ba'zi kompaniyalarning sharoiti qiyin ekaniga va kredit berishda kredit riski baland bo'lishiga qaramasdan, ehtimolli foydani qo'ldan boy bermaslik uchun banklar kredit berishga majbur. Kredit riski qaramlik koeffitsiyenti bilan aniqlanadi.

Foizlar qoplamasi kredit riskini tahlil qilishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Foiz qoplamasi kompaniyaning foizli to'lovlarini ushbu to'lovlarni amalga oshirish orqali keladigan foyda bilan taqqoslash hisoblanadi.

Bank faoliyatlarida kreditlash jarayonlari turli xil risklarga ega bo'lgani uchun banklar qarz oluvchilarga kredit berish jarayonida mijozning kreditga qay darajada layoqatli ekanini tahlil qiladi. Har bir berilgan kredit risk bilan bog'liq bo'lganligi uchun qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasi banklar faoliyati uchun juda muhim hisoblanadi. Banklar riskni hisobga olmagan holda faoliyat yuritsa kredit belgilangan vaqtda to'lanmasligi yoki umuman qaytarilmasligi mumkin.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilish vazifalari:

- kreditga layoqatlilikni aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash;
- ko'rsatkichlarni tahlil qilish;
- ko'rsatkichlarga ta'sir qilish omillarini aniqlash;
- kreditga layoqatlilikni mustahkamlovchi usullarini aniqlash.

Banklar faoliyatida mijozlarning kreditga layoqatliligini tahlil qilish va baholash tizimlarini takomillashtirish zarur hamda unda foydalaniladigan yagona ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Korxonaning moliyaviy holati ko'p hollarda tarmoqdagi ahvol bilan belgilanadi va bu orqali tarmoq riski tushunchasi kiritiladi. Korxonaning moliyaviy ahvolini tahlil qilinayotganda korxonaning faoliyati bo'yicha hisoblangan koeffitsiyentlarni o'rtacha tarmoq koeffitsiyenti bilan taqqoslash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wikipedia.com
2. Moliyaviy risklar nazariyasi. Sh.Q.Fozilchayev, N.G'.Xidirov
3. Iqtisodiyot nazariyasi D.Azimov
4. Pul va Banklar A.Omonov
5. Pul, kredit va Banklar O. Rashidov